O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JIZZAX VILOYATI JIZZAX SHAHAR HOKIMI QARORI

2023 - yil 20 - fevral 46-3-55-Q/23 Jizzax shahar hokimligi

Jizzax shahar Toshloq, Sayiljoyi va Turon mahallalari hududidan o`tuvchi Sayiljoyi ko`chasida harakat xavfsizligini ta’minlash va fuqarolar bilan bog‘liq yo‘l-transport hodisalarini oldini olish maqsadida taqiqlovchi belgilarini o‘rnatish to‘g‘risida.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 12 apreldagi 172- sonli qarorlarining ijrosini ta`minlash maqsadida, Jizzax viloyati yo`l harakati xavfsizligi boshqarmasining 2023 yil 23 yanvardagi 10/6-127-sonli xati hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 5-, 6- va 25-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 12 apreldagi 172-sonli qarorlari va Jizzax viloyati yo`l harakati xavfsizligi boshqarmasining 2023 yil 23 yanvardagi 10/6-127-sonli xati ma`lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Harakat xavfsizligini ta’minlash va fuqarolar bilan bog‘liq yo‘l-transport hodisalarini oldini olish maqsadida Jizzax shahar Toshloq, Sayiljoyi va Turon mahallalari hududidan o`tuvchi Sayiljoyi ko`chasiga 3.27 taqiqlovchi (to‘xtash taqiqlangan) yo‘l belgisi o‘rnatilsin.

3. Shahar ichki ishlar boshqarmasi yo‘l harakati xavfsizligi bo‘limi (B.Abullayev), shahar Obodonlashtirish boshqarmasi (A.Qobilov)ga belgilangan

tartibda yo‘l belgilari o‘rnatish vazifasi topshirilsin.

4. Shahar moliya bo‘limi (A.Abdujalilov)ga yo‘l belgilarini o‘rnatish xarajatlari uchun mahalliy byudjetdan mablag‘ ajratilib berish vazifasi topshirilsin.

5. Mazkur farmoyishning ijrosini nazorat qilish shahar hokimining o‘rinbosari X.Onalbayev zimmasiga yuklatilsin.

Shahar xokimi **К.Холмуродов**